

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

COMPARATIVE FEATURES OF LINGUISTIC MODELS IN ENGLISH AND UZBEKISTAN EPICS

Olimjon Jalilov Mukhidinovich

Associate Professor, Jizzakh State Pedagogical University

Abstract. This article presents a comparative study of linguistic models in English and Uzbek epic texts. The research focuses on how epics in both traditions are organized through stable linguistic patterns at lexical, morphological, syntactic, and pragmatic levels. Particular attention is paid to formulaic diction, repetition, parallelism, and symmetric constructions as mechanisms of oral composition and memorability, as well as to the role of tense-aspect forms in representing epic time. The paper also examines expressive vocabulary, evaluative epithets, and naming patterns (hero nomination) as tools for character construction and cultural coding. The findings suggest that English epics tend to employ more compact, analytically structured models (short formulaic frames, concise dialogue patterns), whereas Uzbek epics more frequently use expanded parallel structures, affixal derivation, and culturally marked formulaic blocks that intensify epic pathos and collective identity. The study argues that the observed differences reflect both typological features of the languages and distinct epic-poetic worldviews, and it proposes a set of comparative parameters for further epic discourse research.

Keywords: English and Uzbek epics, linguistic models, comparative analysis, epic text, formulaicity, parallelism, epic time, expressive lexis.

INGLIZ VA O'ZBEK EPOSLARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI

Olimjon Jalilov Muxidinovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

E-mail: olimjonmjililov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek eposlarida lingvistik modellarning qiyosiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot epik matnlarning og'zaki an'ana sharoitida barqaror yaratilishi va qayta ijro etilishini ta'minlovchi leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik qoliplarni aniqlashga qaratilgan. Asosiy e'tibor formulalik, takror, parallelizm va sintaktik simmetriyaning kompozitsion yaxlitlik va xotiraviy mexanizm sifatidagi vazifalariga, shuningdek zamon-aspekt shakllarining epik vaqtni modellashtirishdagi rolga qaratildi. Shu bilan birga ekspressiv leksika, baholovchi epitetlar va qahramon nominatsiyasi modellari personaj obrazini yaratish hamda madaniy kodlash vositasi sifatida tahlil qilinadi. Qiyosiy natijalar ingliz eposlarida ko'proq ixcham, analitik qurilgan qoliplar (qisqa formulali ramkalar, lakonik dialog sxemalari) ustuvor ekanini, o'zbek eposlarida esa kengaytirilgan parallel konstruksiyalar, affiksial derivatsiya va madaniy belgilangan formulali bloklar epik pafos hamda jamoaviy identifikatsiyani kuchaytirishini ko'rsatadi. Xulosa sifatida til tipologiyasi va epik-poetik dunyoqarash farqlari lingvistik modellar tashkilotiga bevosita ta'sir qilishi asoslanadi hamda keyingi tadqiqotlar uchun qiyosiy parametrlar tizimi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: ingliz va o'zbek eposlari, lingvistik modellar, qiyosiy tahlil, epik matn, formulalik, parallelizm, epik vaqt, ekspressiv leksika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N27>

Ingliz va o'zbek folklorlarida lingvistik modellarning qiyosiy xususiyatlarini tavsiflashda "model" deganda folklor matnini barqaror qiladigan, ijrochi va tinglovchi uchun tanish bo'lgan leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik qoliplar tizimi tushuniladi. Bu qoliplar bir tomondan

universal (ogʻzaki anʼanaga xos), ikkinchi tomondan milliy-tipologik (til qurilishi va madaniy ssenariylarga bogʻliq) xususiyatga ega. Poetik funktsiya nazariyasida til birliklarining tanlanishi va oʻzaro ekvivalent qatlamlarda qurilishi matnning estetik taʼsirini kuchaytiradi, degan qarash folklor modellarining qiyosiy tahlili uchun muhim metodologik tayanch boʻladi [1]. Mening fikrimcha, folklor “model”lari aynan shu yerda namoyon boʻladi: bir xil grammatik ramka saqlanadi, ammo leksik oʻzgarishlar orqali obraz va syujet harakatlanadi; shuning uchun qiyosda birinchi navbatda qolipning barqaror qismi (struktura) va oʻzgaruvchan qismi (leksik toʻldirish) ajratib olinishi kerak.

Ingliz va oʻzbek folklorida formulalik (barqaror ifoda va tayyor sintaktik bloklar) ogʻzaki ijodning ishlab chiqarish mexanizmi sifatida ishlaydi. Ogʻzaki epos nazariyasida ijrochi tayyor bloklardan foydalanib improvizatsiya qiladi, degan konsepsiya folklor til modellarining tabiatini aniqlashga yordam beradi [5]. Mening kuzatuvimcha, ingliz anʼanasida formulalar koʻpincha ixcham va analitik tuzilishda: subyekt + nutqiy feʼl (masalan, “sed xi/sed shi” turidagi replika ramkalari), sifat + ot (masalan, “bold nayt”, “nobl king”) kabi qoliqlar tez-tez takrorlanadi. Oʻzbek eposida esa formula koʻpincha kengaytirilgan sintaktik blok koʻrinishida keladi: “shunda u shunday dedi”, “soʻz boshlab aytdiki”, “yer titradi—togʻ larzandi” tipidagi juft parallel gaplar barqaror qolip sifatida ishlaydi. Bu farqning sababi menimcha faqat uslubiy emas: inglizda maʼnoni ixcham ramkaga joylashtirish tendensiyasi, oʻzbekda esa pafos va giperbolani keng sintaktik qatorlar orqali kuchaytirish tendensiyasi ustuvor.

Leksik-semantik modellar nuqtai nazaridan har ikki folklorida obrazni tez qurish uchun baholovchi epitettar, metaforalar va ekspressiv leksika faol qoʻllanadi. Tipologik jihatdan farq shundaki, inglizda baholovchi sifatlar odatda qisqa va chastot: “breyv/bold/feyr/krueel” kabi birliklar personajni tez markirovka qiladi; oʻzbekda esa epitettar koʻp komponentli va intensiv: “sherdil bahodir”, “nomard dushman”, “oltin taxtli xon” kabi birikmalar obrazni bir vaqtning oʻzida ham baholovchi, ham madaniy kodlovchi funktsiya bilan taʼminlaydi. Oʻzbek eposida “sher”, “tulpor”, “qilich” kabi leksemalar neytral nom emas, balki qahramonlik ssenariysini chaqirib keladi; ingliz anʼanasida esa “stid”, “svord”, “xol” kabi poetik leksema va realiylar xuddi shunday “qahramonlik dunyosi”ni faollashtiradi. Amerikalik va inglizcha folklor materiallarini ensiklopedik tarzda tizimlashtirgan manbada ham “qahramonlik”, “outlaw” (qonundan tashqari qahramon), “legendary hero” kabi toifalar doimiy leksik belgilari bilan birga kelishi qayd etiladi [9]. Bizningcha, qiyosiy nuqtai nazardan eng muhim jihat shu: inglizda epitet koʻp holda personajning individual xislatini (“bold”) belgilasa, oʻzbekda epitet koʻpincha ijtimoiy-etik bahoni (“mard/nomard”) va kollektiv idealni ham bildirib turadi.

Morfologik modellar qiyosida ingliz tilining analitik tabiati va oʻzbek tilining agglyutinativ tabiati folklor tuzilishida toʻgʻridan-toʻgʻri iz qoldiradi. Inglizda grammatik maʼno koʻpincha yordamchi feʼllar, predloglar va soʻz tartibi orqali tashkil topadi; shu sababdan folklorida “kompozit” nominatsiyalar va ixcham nominativ guruhlar (masalan, qahramonni tavsiflovchi ikkita-uchta soʻzli birikmalar) keng uchraydi. Oʻzbekda esa affiksatsiya va shaxs-zamon koʻrsatkichlari matnning “grammatik zichligi”ni oshiradi: -oʻgʻli, -bek, -boy kabi formantlar ijtimoiy maqom va nasabiy mansublikni morfologik darajadayoq kodlaydi. Mening fikrimcha, shu yerda folklor modelining muhim farqi bor: ingliz matnida maqom va mansublik koʻproq leksik (titul, murojaat) orqali berilsa, oʻzbek matnida bu maʼno koʻpincha morfologik formantning oʻzida “tayyor” holda keladi; bu esa obrazni tez va barqaror “ijtimoiy ramka”ga joylashtiradi.

Sintaktik modellar nuqtai nazaridan parallelizm, takror va simmetriya har ikki folklorda universal qonuniyat bo'lsa-da, ularning poetik vazifasi va ko'lamli farqli. Badiiy matnda simmetriya va takror ma'noni tashkil etuvchi signallar ekanini ta'kidlovchi semiotik yondashuv folklor sintaksisini tushuntirishda samaralidir [3]. Ingliz an'anasida parallelizm ko'pincha qisqa qatorlar, refren va zanjirli gaplar orqali ritmni barqarorlaydi: “xi vent—xi so—xi sed” turidagi ketma-ketlik syujetni tezlatadi. O'zbek eposida esa parallelizm ko'pincha kengaytirilgan: anafora (“chiqdi... chiqdi... chiqdi...”), juft parallel gap (“yer titradi—tog' larzandi”), gradatsiya (“bir urdi... ikki urdi... uchinchi urdi...”) orqali pafos va giperbola kuchayadi. Xulosamiz shuki, ingliz parallelizmi ko'proq kompozitsion tozalik va ritmik izchillikka xizmat qilsa, o'zbek parallelizmi ko'proq emotsional ko'tarinkilik va epik masshtab yaratishga xizmat qiladi; bir xil sintaktik ramka saqlanib, har qatorda semantik kuchayish berilishi o'zbek matnlarida ayniqsa faol.

Narativ vaqt va zamon formalari ham qiyosiy model sifatida muhim: epik vaqt kalendar emas, “rivoyat masofasi”ni (uzoq o'tmish, sahnalashtirish, baholash) boshqaruvchi grammatik qurilmadir. Nutq (diskurs) va rivoyat (hikoya) rejimlari farqi haqidagi qarash epik matnda dialog va bayonning navbatlashuvini tushuntirishga yordam beradi [2]. Ingliz folklorida asosiy bayon ko'p holda o'tgan zamonda ketadi, lekin dramatik nuqtalarda tarixiy hozir (historic present) yoki modal kelajak (will/shall) orqali sahnalashtirish kuchayadi; o'zbekda esa -gan ekan, -ibdi, debdilar kabi “rivoyat-eshitilganlik” tusi voqeani “an'anaviy o'tmish”ka ko'chiradi va ishonch rejimiga alohida ottenk beradi. Bizningcha, bu farq epik vaqtning lingvistik modelini aniq ko'rsatadi: inglizda sahnalashtirish ko'proq diskursiv almashinuv va modallik bilan, o'zbekda esa rivoyat tusini beruvchi maxsus fe'l shakllari bilan kuchliroq kodlanadi.

Dialog va pragmatika modellarida ham qiyosiy farqlar yaqqol: folklor dialogi replika ramkalari, murojaatlar, amr-savol-inkor konstruksiyalari va marosimiy nutqiy aktlar (olqish-qarg'ish, duo, qasam) orqali quriladi. Personaj funksiyalari barqarorligi haqidagi qarashlar folklorda dialog ham tipologik rollarga xizmat qilishini ko'rsatadi [4]. Kuzatuvimizga ko'ra, ingliz dialogida ramkalar odatda ixcham (“sed xi/askd shi”), murojaatlar (sir, my lord) asosan leksik; o'zbek dialogida esa hurmat shakllari, muloyimlashtiruvchi vositalar (-ing, -chi), kengaytirilgan kiritish ramkalari (“deb so'radi”, “shunda aytdiki”) ijtimoiy iyerarxiyani grammatik darajadayoq namoyon qiladi. O'zbek folklorshunoslik darsliklarida ham og'zaki ijodning janr xususiyatlari va poetik vositalari tizimli bayon qilinadi, bu yerda dialog va formulalikning o'zni alohida ta'kidlanadi [6]. Fikrimizcha, o'zbek an'anasida dialog “marosimiy pragmatika” bilan ko'proq uyg'unlashgan: olqish-qarg'ish, qasam, tilak formulalari dialogni faqat syujet quroli emas, ijtimoiy-axloqiy me'yorni mustahkamlovchi mexanizmga aylantiradi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkin: ingliz va o'zbek folklorlarida lingvistik modellar universal poetik qonuniyatlar (formulalik, takror, parallelizm, epitet, dialog ramkalari) asosida qurilgan, ammo milliy-tipologik tabiat ularni turlicha shakllantiradi. Inglizda analitik tuzilish ixcham sintaktik ramkalar va kompozit nominatsiyalar orqali “ritm va kompozitsion tozalik”ni kuchaytiradi; o'zbekda agglyutinativ tuzilish va keng parallel qatorlar “pafos, giperbola, jamoaviy identifikatsiya”ni kuchaytiradi. O'zbek dostonlari tilidagi lingvomadaniy birliklar maxsus tadqiq etilganida ham formulalik va poetik sintaksis madaniy kodlarni tashuvchi markaziy mexanizm sifatida talqin qilinadi [7], shu bilan birga lingvostatistik yondashuvlar epik matndagi takroriy qoliplarni empirik jihatdan ko'rsatish imkonini beradi [8]. Mening taklifim shu: qiyosiy tadqiqotda “birlik”ni emas, “qolip”ni asosiy tahlil obyekti qilish kerak —

ya'ni epitetning o'zi emas, epitetli nominativ guruh modeli; bir gap emas, parallel gaplar bloki; bir dialog replikasi emas, dialog ramkasi va nutqiy akt ssenariysi. Ana shunda ingliz va o'zbek folklorlarining lingvistik modellari o'rtasidagi umumiylik va milliy-spetsifiklik ilmiy asosda ochiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Якобсон Р. О. Лингвистика и поэтика // Структурализм: «за» и «против» : сб. статей. — М. : Прогресс, 1975. — С. 193–230.
2. Бенвенист Э. Общая лингвистика. — М. : Прогресс, 1974. — 448 с.
3. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. — М. : Искусство, 1970. — 384 с.
4. Пропп В. Я. Морфология «волшебной» сказки. Исторические корни волшебной сказки : собрание трудов. — М. : Лабиринт, 1998. — 512 с.
5. Лорд А. Б. Сказитель. — СПб. : Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2018. — 552 с.
6. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди : дарслик. — Тошкент : Ўқитувчи, 1990. — 304 б.
7. Жуманазаров У., Жуманазарова Г. Халқ дostonлари тилидаги лингвомаданий бирликлар : монография. — Тошкент, 2019. — 252 б.
8. Жуманазарова Г. Ўзбек халқ дostonлари матнининг лингвостатистик таҳлили. — Тошкент : Тафаккур, 2011. — 72 б.
9. Американ фолклор: энциклопедия / муҳаррир Ж. Х. Бранванд. — Нью-Йорк : Гарланд (Routledge), 1996. — 812 p.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).